

**“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTUR MAVZULARI**

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	Yagona milliy mehnat tizimi, Soliq qo‘mitasi va boshqa manbalar ma’lumotlarini integratsiya qilish orqali mehnat statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish. 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: -YaMMT, soliq va boshqa ma’muriy ma’lumotlar asosida mehnat statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish, hududlar, jins, iqtisodiy faoliyat turlari, kasblar/lavozimlar kesimida mehnat ko‘rsatkichlarini baholash metodologiyasi ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Milliy statistika qo‘mitasi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Milliy statistika qo‘mitasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Milliy statistika qo‘mitasi qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi..